

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
REABILITATSIYA ASOSLARI HAMDA FIZIOTERAPIYA VA MASSAJ
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN REABILITATSIYA ASOSLARI HAMDA FIZIOTERAPIYA VA MASSAJ FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj

1. Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj haqida tushuncha. Reabilitatsiya tushunchasi.
2. Fizioterapiya bo‘limining faoliyati. Fizioterapiya bo‘limida davolanayotgan bemorlar bilan muloqot xususiyatlari;
3. Elektr bilan davolash. Yorug‘lik bilan davolash;
4. Massaj turlari;
5. Reabilitatsiya haqida tushuncha. Dispanserizatsiyaning asosiy turlari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj haqida tushuncha. Reabilitatsiya tushunchasi.	Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj haqida tushuncha. O‘zbekistonda fizioterapiyaning rivojlanish tarixi. Zamonaviy fizioterapiya. Fiziologik muolajalarni umumiy ta’siri.	7 ta
2	Fizioterapiya bo‘limining faoliyati. Fizioterapiya bo‘limida davolanayotgan bemorlar bilan muloqot xususiyatlari	Fizioterapiya bo‘limining faoliyati. Fizioterapiya bo‘limida davolanayotgan bemorlar bilan muloqot xususiyatlari. Poliklinika va shifoxonalarda fizioterapiya xonalarni tashkil etish. Fizioterapiya bo‘limida ishlaydigan hamshiraning vazifalari. Soddalashtirilgan fizioterapiya muolajalari. Muolaja xonasida aseptika va antiseptika qoidalari. Girudoterapiya. Oksigenoterapiya	9 ta
3	Elektr toki, bilan davolash. Yorug‘lik bilan davolash	Elektr bilan davolash, ko‘rsatma va moneliklarni aniqlash, bemorni tayyorlash, muolaja davomida bemorlarni kuzatish, apparatlar bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni, patologik holat yuzaga kelganida yordam ko‘rsatish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Elektroforez muolajasi uchun ko‘rsatma va moneliklarni aniqlash va ularni qo‘yish texnikasi bilishi, elektro uyqu muolajasi uchun ko‘rsatma va moneliklarni aniqlash va ularni bajarish texnikasi, U.V.Ch muolajasi uchun ko‘rsatma va moneliklari aniqlash va ularni bajarish texnikasi, darsonvalizatsiya muolajasi uchun ko‘rsatma va moneliklarini aniqlash va ularni bajarish texnikasi, magnitoterapiya muolajasi uchun ko‘rsatma va moneliklarni aniqlash va ularni bajarish texnikasi ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Fototerapiya haqida tushuncha, yorug‘lik bilan davolashni, ko‘rsatma va moneliklarni aniqlay olish, bemorni tayyorlash, muolaja davomida bemorlarni kuzatish, apparatlar bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi,	8 ta

		<p>yorug'lik bilan davolash muolajasini bajarish texnikasi, muolaja davomida bemorni kuzatish, patologik holat yuzaga kelganida bemorga yordam berishni o'rganish, infraqizil nur bilan davolash, muolaja uchun ko'rsatma va moneliklar, muolajani bajarish texnikasi, muolaja vaqtida bemorni kuzatish va bilimlarini qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Issiqlik bilan davolash uchun ko'rsatma va moneliklarini aniqlash, muolajaga bemorni tayyorlash, issiqlik bilan davolashda Parofinoterapiya muolajasi va loy bilan davolash muolajasi uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlash bilimlariga ega bo'lishi va tahlil qila olishi, balototerapiya muolajasi uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlash, ozokerit bilan davolash muolajasi uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlash bilim va ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.</p> <p>Quyosh bilan davolash, bemorni tayyorlash, muolaja davomida bemorlarni kuzatish, gidroterapiya haqida tushuncha, suv bilan davolash muolajasi uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlash, muolajaga bemorni tayyorlay olish, muolaja davomida bemorni kuzatish, havo bilan davolash muolajasi uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlay olishi, muolaja davomida bemorni kuzatishni bilishi.</p>	
4	Massaj turlari	<p>Massaj muolajasini o'tkazish uchun ko'rsatma va moneliklarni tanlay olishi, uqalash usullari va turlarini bilishi, ko'krakni uqalash uchun ko'rsatma va moneliklarni farqlay olish, ko'krakni uqalash massaj algoritmi, orqani uqalash uchun ko'rsatma va moneliklarni aniqlash, orqani uqalash algoritmi, jismoniy faollikning ilmiy asoslarini bilishi, DJTning umumiy asoslari: vosita va shakllarini bilishi, harakat tartibotlari, kattalarda davolash fizkulturasiga oid bilimlarga ega bo'lishi va qo'llash olishi.</p>	3 ta
5	Reabilitatsiya haqida tushuncha. Dispanserizatsiyaning asosiy turlari	<p>Reabilitatsiya haqida tushuncha. Dispanserizatsiyaning asosiy turlari. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida zamonaviy reabilitatsiya usullari. Tayanch harakat apparati kasalliklarida reabilitatsiya. Travmatologiya reabilitatsiya xususiyatlari</p>	13 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini

testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. X.O.Xayitova, A.R.Turakulova “Reabilitatsiya asoslari hamda fizioterapiya va massaj” Toshkent 2024 yil

2. F.Sh. Baxadirova “Reabilitatsiya, massaj va mehnat bilan davolash”, Toshkent - 2010 yil.

3.K.Ye.Ulxo‘jaeva, B.T.Xudoyberganova Fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya” Toshkent - 2004 yil.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*